

**ISHCHI KUCHI VA ISHSIZLIKNI KELIB CHIQISHI**  
**LABOR FORCE AND THE ORIGIN OF UNEMPLOYMENT**

*To'xtasinova Zarina Zokirjon qizi*

*Qarshi Muhandislik Iqtisodiyot Instituti "Xorijiy tillar" kafedrasida o'qituvchisi*

*Sunnatillayev Azimjon*

*Qarshi Muhandislik Iqtisodiyot Instituti Iqtisodiyot fakulteti talabasi*

***Annotatsiya:** Maqolada Ishchi kuchini kelib chiqishi va ularni yaxshi kadir bo'lib yetishib chiqishiga sharoitlar qilib berish kerakligi. ishchi kuchi resurslari ya'ni faol, potensial qisimlari nimaligi, mamlakat ichidagi migratsiya va ularning turlari. Ishsizlik daraja formulalari, ishsizlikning turlari va ishsizlikni oldini olish chora tadbirlari tavsif qilingan.*

***Annotation:** In the article, the origin of the labor force and the need to create conditions for them to develop into good employees. What are the labor force resources, that is, active and potential parts, migration within the country and their types. Unemployment level formulas, types of unemployment and unemployment prevention measures are described.*

***Kalit so'zlar:** Ishchi kuchi, ishsizlik, ichki migratsiya, ishsizlik darajasi, faol, potensial resurslar.*

***Key words:** Labor force, unemployment, internal migration, unemployment rate, active, potential resources.*

**Ishchi kuchi:** Insonning aqliy va jismoniy qobiliyatlarning yig'indisi bo'lib, jamiyatda asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi hisoblandi. Chunki inson aqilli va jismoniy qobiliyatlari bo'lsa kelajakda har xil kashfiyotlar qilib o'ziga va davlatiga manfaatli ishlar qiladi. Ishchi kuchi takror ishlab chiqiladi yani bir insonning aqliy va jismoniy kuch quvvatini ishlatib bo'lgandan so'ng u charchaydi, charchagan

ishchining qobiliyatini tiklash uchun uning ovqatlanishi, kiyinishi, dam olishi va madaniy hordiq chiqarishi lozim. U shundan so'ng yana qobiyatidan foydalanishi mumkin. Ishchi kuchini yaxshi kadr bo'lib yetishishga atrofdagi odamlar va u yerning madaniyati yaxshi bo'lish va unga yaratilgan sharoitlar ham bo'lishi. Sharoit deganda uning ehtiyojlarini qondirish. Ehtiyojlarga u o'qiydigan kitoblar, charchaganda dam oladigan joyi, uni ilim olishga ajratadigan vaqti bo'lish kerak. Insonlarni ishga layoqatli yoki ishga layoqatsizligi-**ishchi kuchi resurslari** deyiladi. Insonning ishchi kuchi resurslari tarkibiga kiritilishi asosiy mezon bo'lib, uning yoshi va mehnatga bo'lgan qobilyati hisoblanadi. Odatda ishchi kuchi resurslari tarkibiga 16 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan erkaklar, 16 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan ayollar kiradi. Lekin nafaqaga chiqqandan so'ng ham yana ishlashni hohlaganlar va ishlashga kuchi yetadiganlarga ishlash huquqi beriladi. Ishchi kuchi resurslarining **faol** va **potensial** qismi farqlanadi.

**Faol qismi:** Ijtimoiy ishlab chiqarishga band bo'lgan shaxslar kiradi.

Masalan: O'qtuvchilar, bankda ishlaydiganlar, davlat va hokimiyatga ishlaydiganlar kiradi, chunki ular kun davomida bir ish bilan mashg'ul bo'ladi.

**Potensial qismi:** Ishlab chiqarishdan ajralgan holda o'qiyotganlar va vaqtinchalik uy xo'jaligida band bo'lgan shaxslar kiradi.

Masalan: O'qiyotgan talabalar ular ham o'qiydi ham ishlaydi ular kun davomida bir ish bilan mashg'ul bo'lmaydi. Vaqtinchalik uy xo'jaligidagi shaxslar-bularga biron bir kasalligi tufayli uyida bo'lishi yoki homillador ayollar ular ishlaydi lekin shu sababli uyida bo'lib ishlolmay qolgan shaxslar kiradi.

Mamlakatdagi ishchi kuchi resurslari miqdoriga aholining tabiiy o'sishidan tashqari ishchi kuchi migratsiyasi ham ta'sir qiladi. Ishchi kuchi migratsiyasi murakkab jarayon bo'lib. turli omillar ta'siri ostida (masalan. ish haqi darajasidagi o'zgarishlar, ishsizlik va h.k.) ishchi kuchining bir hududdan boshqa bir hududga ko'chib o'tishini bildiradi. Migratsiya ikki darajada, ya'ni mamlakat ichida va xalqaro darajada ro'y berishi mumkin. Bir mamlakat ichida ro'y bergan migratsiya ichki migratsiya deb ataladi.

**Ichki megratsiya quyidagi shakllarda bo'ladi**

**1. Tugal migratsiya:** aholining doimiy yashash joyini o'zgartirish bilan bog'liq migratsiya.

Masalan: Qashqadaryoda yashaydi lekin, Toshkentda o'qib va shu yerda ishlab qoldi vaqt o'tishi bilan Toshkentga ko'chib keladi.

**2. Tebranuvchi migratsiya:** ishchi kuchining bir hududdan boshqa hududga muntazam davriy ravishda qatnab ishlashi bilan bog'liq migratsiya;

Tebranuvchi migratsiyaga-bir shaxs o'z tumaniga yani qashqadaryoga o'qishga kirdi va shu yerga ishlab qoldi bu misol bo'la oladi.

**3. Mavsumiy migratsiya:** mavsumiy ish faoliyati bilan bog'liq migratsiya;

Mavsumiy migratsiya yani faqat bahorda ishlaydi shuning uchun u faqat bahorda Toshkentga borib ishlab keladi.

**4. Tasodifiy migratsiya:** ishchi kuchining ba'zi hollarda boshqa hududlarga borib kelishi bilan bog'liq migratsiya.

Tasodifiy migratsiya -bir shaxs biron bir ishda ishlaydi u chetdagi mehmonlar kelyapti ular ham shu yo'nalish bo'yicha ishlaydi va barcha tumandagilar ish bo'yicha yig'ilish bo'lyapti shunga borib qatnashib kelish misol bo'la oladi.

**Ishsizlik:** Iqtisodiyotning barqarorligi va sog'lomligini aks ettiruvchi ko'rsatkichlardan biri ishsizlik darajasi hisoblanadi. Biroq har qanday mamlakatda doimiy ravishda ma'lum darajada ishsizlik mavjud bo'ladi. Umuman olganda, mehnatga layoqatli bo'lib, ishlashni xohlagan, lekin ish bilan ta'minlanmaganlar ishsizlar deyiladi.

**Ishsizlik turlari :** Ishsizlik, friksion, tarkibiy, siklik. institutsional, texnologik, yashirin va turg'un ishsizlik turlariga bo'linadi.

**1. Friksion ishsizlik.** Siz bankda ishlaysiz lekin berilgan ishni vaqtida bajarmadiz va boshlig'ingizni gapiga bo'ysinmadiz va sizni ishdan bo'shatib yubordi. Endi siz boshqa ishga joylashgunizcha ishsiz bo'lasiz shu **friksion ishsizlik** deyiladi.

**2. Tarkibiy ishsizlik.** Aytaylik siz yaxshi kadrsiz siz ishlashingiz kerak, biron-bir korxonaga borib ish o'rganib ishlab ketgunizcha ketgan vaqtdagi ishsizligingiz **tarkibiy ishsizlik**.

**3.Siklik ishsizlik.** Bozorda ishlab chiqarishni pasayib ketishi va yalpi talabni qisqarishidan **siklik ishsizlik** vujudga keladi.

**4.Institutsional ishsizlik.** Ko'p korxonalarining yaxshi rivojlanmaganligi va ish bilan taminlab berolmasligi yoki korxonalar kam, ish o'rni yo'q shu holatlarga **institutsional ishsizlik** deyiladi.

**5.Texnologik ishsizlik.** Katta-katta korxonalarda ishchi kuchini texnologiyalar bajarishi **texnologik ishsizlik** deyiladi.

**6.Yashirin ishsizlik.** Yuridik shaxs ish kuni yoki ish haftasidagi to'liq ish bilan band bo'lmasligi yani ish kunlari ishini qilmay boshqa ish bilan mashg'ul bo'lishi **yashirin ishsizlik** deyiladi.

**7.Turg'un ishsizlik.** Mehnatga layoqatli aholining ish joyini yo'qotgan, ishsizlik bo'yicha nafaqa olish huquqidan mahrum bo'lgan hamda faol mehnat faoliyatiga hech qanday qiziqishi bo'lmagan ishsizlik qismi **turg'in ishsizlik** deyiladi.

**Ishsizlik darajasini formulasi.** Ishsizlar soning ishchi kuchi tarkibidagi foizi sifatida hisoblanadi.

**Ishsizlik darajasi=(Ishsizlar soni x 100%)\Ishchi kuchi soni.**

**Ishsizlikni oldini olish uchun-**Davlat tadbirkorlarni qo'llab quvvatlab ular qilgan korxonalarini ko'paytirishga mablag' ajratayapti.Davlatimiz boshqa davlatlar bilan hamkor korxonalar ochib aholini ish bilan taminlayapti.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. V.Ya. Ioxin. Ekonomicheskaya teoriya: Uchebnik. - M.: Ekonomist', 2005.
2. V. G. Klinov. Ekonomicheskaya kon'yunktura. Faktori i mexanizm yeyo formirovaniya. Uchebnoe posobie. - M.: MGIMO.2003.
3. L.M. Kulikov. Ekonomicheskaya teoriya. ucheb. - M.: TK Vebli, Izd-vo «Prospekt», 2005.
4. Kurs ekonomicheskoy teorii. 5-ye izd. ispr. dopoln. i prerab. Kirov: ASA, 2004.

5. Kurs ekonomicheskoy teorii. /Avtor. koll. pod red. prof. M.N.Chepurina. Uchebnik: - M.: INFRA. 2004.

6. Kurs ekonomicheskoy teorii: Obshie osnovi ekonomicheskoy teorii. Mikroekonmika. Makroekonomika. Osnovi natsionalnoy ekonomiki: Uchebnoe posobie / Pod red. d.e.n., prof. A.V.Sidorovicha. - M.: «Delo i Servis», 2001.

7. [www.economv.com](http://www.economv.com) - AQShning Pensilvaniya shtatidagi Economy.com, Inc. korporatsiyasi veb-sayti.

8. [www.intemetindicators.com](http://www.intemetindicators.com) - Iqtisodiy indikatorlar Internet veb-sayti.